

## **AXMEDOVA UMIDAXON YODGORJON QIZI**

Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta‘lim uslubiyoti kafedrası  
o‘qituvchisi

### **BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARI**

**Annotatsiya:** Innovatsion ta‘lim usullari, shu jumladan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ilovalaridan tobora ko‘proq foydalanish zamonaviy ta‘lim jarayonini o‘zgartirmoqda. O‘qituvchilarning AKT haqidagi tasavvurlari, kompyuterda o‘z-o‘zini samaradorligi va demografik ko‘rsatkichlari ta‘lim jarayonida AKTdan foydalanishga ta‘sir etishi aniqlangan. Maqolada boshlang‘ich sinf darslarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil o‘quv faoliyatiga tayyorlash, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Axborot texnologiyalari, elektron doskalar, elektron darsliklar, elektron dars ishlama.

## **АХМЕДОВА УМИДАХОН ЁДГОРЖОН КИЗИ**

Преподаватель кафедры методики начального образования Ферганского  
государственного университета.

### **ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Аннотация:** Инновационные методы обучения, включая все более широкое использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), изменяют современный образовательный процесс. Установлено, что представления учителей об ИКТ, их эффективность работы на компьютере и демографические показатели влияют на использование ИКТ в образовательном процессе. В статье освещаются вопросы организации уроков в начальных классах на основе современных педагогических технологий, подготовки учащихся к самостоятельной учебной

деятельности и эффективного использования информационных технологий.

**Ключевые слова:** Информационные технологии, электронные доски, электронные учебники, разработка электронных уроков.

**AKHMEDOVA UMIDAXON YODGORJON QIZI**

Teacher of the Department of Primary Education Methodology at Fergana State University.

## **INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION**

**Abstract:** Innovative teaching methods, including the increasing use of information and communication technologies (ICT), are transforming the modern educational process. It has been established that teachers' perceptions of ICT, their self-efficacy with computers, and demographic indicators influence the use of ICT in the educational process. The article discusses the organization of lessons in primary classes based on advanced pedagogical technologies, preparing students for independent learning activities, and effective use of information technologies.

**Keywords:** Information technologies, electronic boards, electronic textbooks, electronic lesson development.

### **Kirish**

Innovatsion texnologiyalar jamiyatni yaxshilaydi, o'sishni yaxshilaydi va dolzarb muommalarga yechim yaratadi. Texnologiyaning uzluksiz rivojlanishi yangi osullarning shakllanishiga yoki mavjudlarini takomillashtirishga yordam beradi. Axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) boshlang'ich ta'limda muhim rol o'ynaydi, ta'lim jarayonini yangilash va o'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasida samarali aloqani ta'minlaydi.

### **Asosiy qism**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshrish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son farmonida asosida ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llash yuzasidan qator vazifalarni belgilab beradi. Bularni amalga oshirish maqsadida ta'lim sohasida quyidagi ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan:

"Yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

Raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish"[1]. Kabi bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida maktab o'quvchilarida axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishni oshormoqda.

O'qituvchilarning ta'limda AKTdan foydalanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, in'ikoslar sinfda texnologiyadan foydalanishga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. In'ikoslarning bevosita ta'sirini ikki guruhga bo'lish mumkin: texnologiya haqidagi tasavvurlar va ta'limda AKTdan foydalanish haqidagi tasavvurlar. Bunga misol sifatida idrok AKTdan innovatsion foydalanishni rag'batlantiruvchi omil sifatida ko'rsatish mumkin. AKT haqida ijobiy tasavvurlar va ulardan ta'limda foydalanish ko'pincha qoniqish omillari sifatida, salbiy tushunchalar esa o'chirish omillari sifatida taklif qilinadi.[2]

Axborot texnologiyalari jamiyatning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi, endi u shunchaki texnologik jarayon emas, aksincha, ijtimoiy jarayonga aylanib bormoqda. "Davlatning iqtisodiy qudrati, xalqaro nufuzi, demokratik institutning rivoji darajasi axborot texnologiyalarning tadqiqotiga bog'liq bo'lib bormoqda. Axborot insoniyatning nixoyatda muhim va cheksiz resursiga aylandi. Bu esa qaysi sohaga bo'lishidan qat'iy nazar, internetning milliy sigmentida o'z axborotlarimizni tobora ko'paytirib borishni taqozo etadi."[3]

O'qitish va o'rganish jarayonida Internet texnologiyalariga katta o'rin ajratilmoqda. Bunday texnologiyalar ta'lim jarayoniga ko'maklashib, o'qitish dasturlari, o'quv qo'llanmalari, elektron darsliklar va jurnallardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda, bu esa o'z navbatida foydalanuvchilarga ilmiy maktab ishlarini ta'minlamoqda.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda va imkoniyatlarining mavjudligi ta'lim jarayonida ularni qo'llash muhim hisoblanadi.

“Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali masofadan turib, onlayn yoki oflayn o'qish imkoniyatlarining paydo bo'lishi, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarga juda katta imkoniyat bermoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab elektron ta'lim olish imkonini beruvchi juda ko'plab elektron ta'lim platformalari faoliyat yuritmoqda. Elektron usulda ta'lim olishning eng afzal tomoni ta'lim oluvchi ayrim sabab bilan darsda qatnasha olmasa yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmasa, platformaga kirib, video-ma'ruzalardan qayta-qayta foydalanishi mumkin. Bu esa ta'lim olish samaradorligini sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi.”[4] Bundan ko'rinadiki butun dunyo axborot kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmoqlari bilan bog'liq.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarga ko'ra inson ongi ma'lumotlarning 90% ni ko'rish, 9% ni eshitish, 1% ni esa his qilish orqali qabul qilar ekan. Bundan kelib chiqadiki, darslarda ko'rgazmalardan, electron darsliklardan, slaydlardan, videolardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki

tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi.

Texnologiya va tasviriy san'at darslarida ham slaydlardan unumli foydalansa bo'ladi. Masalan, rassomlar, rasmlar namunalari, loyiha namunalari, loyiha bosqichlari, qo'l mehnati namunalari va shu kabi mavzularni slayd yordamida namoyish qilish mumkin.

Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi.

Tabiiy fanlar darslarida ham barcha mavzularda video-roliklar, taqdimotlar, testlar, animatsion multimedialarni qo'llash yaxshi natija beradi. Masalan, yurtimiz tabiati, suv havzalari, hayvonot dunyosi, dengizlar, okeanlar hamma mavzuni animatsion slaydlarda aks ettirish mumkin [5].

### **Xulosa**

Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son Farmoni. [www. Lex.uz](http://www.lex.uz).

2. Marina Aivazidi, Christos Michalakelis “Information and Communication Technologies in Primary Education: Teachers’ Perceptions in Greece” // Informatics 2023, 10, 57. <https://doi.org/10.3390/informatics10030057> Academic Editor: Valentina Dagiene.

3. N.G‘.Shomatova “Boshlang‘ich ta’lim tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish” // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\ Volume: 1, ISSUE: 4

4. O.T.Yakubov “ Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari” // “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnalining 2023-yil 3-soni.

5. S.Y.Ergasheva “Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari” // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7.